



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



ZAMONAVIY SHE'RIYATDA RUHIYAT TALQINI

Yulduz Xaitova

Termiz davlat universiteti filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ra'no Uzoqova o'z davrining qaynoq shoirlaridan edi. Ammo uning hayot yo'li bir maromda kechmadi. U yetimlik degan achchiq qismatni endi yodidan chiqargan vaqtda turmush o'rtog'i urushga ketdi. Shoiraning "Anorxon"⁴² nomli she'rida bu holat o'z aksini topadi. She'rda izg'irin shamol esib, ko'zni ochirmaydigan yomg'ir aralash qor yog'ayotgan bir paytda ingragan ovoz kelishi, buzuq darvoza yonida juldurlar ichiga o'ralgan bir chaqaloq sovuqdan qizarib yig'lashi, shunda otda kelayotgan shaharning soqchisi uni olib, mehribonlik uyiga topshirishi, unga Anorxon ismi qo'yilganligi, hozirgi kunda u Vatanning qahramon qizi ekanligi obrazli tasvirlar orqali yoritilgan:

Internat eshigi ochilib shunda,
Oldilar soqchining qo'lidan qizni.
Kiygizib Anorga ozoda libos,
Sevdilar erkalab qop-qora ko'zni.
U – hozir Vatanning qahramon qizi,
Umid-la chaqnaydi olovli ko'zi.
U jasur, chiniqqan muhandis o'zi,
Mardona kuch bilan jaranglar so'zi.

Ra'no Uzoqova she'rlari orasida beshliklar salmoqli o'rinni egallaydi. "Mardona yuring", "Unutmam men ham", "Ona va qiz suhbat", "Merganim", "Quyosh" kabi she'rlarini beshlikning go'zal namunalarini deyish mumkin.

"Quyosh"⁴³ she'ri to'rt banddan iborat bo'lib, birinchi bandida Quyosh nuridan ko'zlar to'yamsligi, yuzlarning olovdek yashnashi, u buyuk olamga jon bag'shlashi, mehnatkash tomirlarga qon berishi aytilsa, ikkinchi bandida quyoshsiz el zim-ziyo bo'lishi, bog'da gul, vodiya giyoh bitmasligi, baxtimiz tun kabi siyoh bo'lishi, el boyqushlar makoniga aylanishi ta'kidlanadi. Uchinchi bandida bo'ronlarni, bulutlarni quvganida, insonlar quyosh nuriga yuz tutganini, tomchilar dillarning dog'in yuvganda, quyosh intiqlik bilan kutilgani go'zal o'xshatishlar bilan ifodalangan. She'rning to'rtinchi bandi quyidagi satrlar bilan boshlanadi:

Munavvar bir tongda shu'lalar sochding,
G'aflat uyqusini tark etdi gullar.
Nuring-la baxtimiz bulog'in ochding,
Nur sochding, baxt quchib, yayradi dillar,
Sen bilan biyrondir bog'langan tillar.

⁴² Узоқова Р. Бахт қўшиғи (Нашрга тайёрловчи: Тоштемир Турдиев). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий ўйи, 2016. – Б. 29.

⁴³ Shu kitob.– Б. 19.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



She’rning birinchi bandi a-a-a-b-b shaklida, ikkinchi bandi a-b-b-a-a shaklida, uchinchi va to’rtinchi bandlari a-b-a-b-b shaklida qofiyalangan. She’rda quyosh o‘z ma’nosidan tashqari hurlik ma’nosini ham ifodalamoqda. Ikkinchi bandning birinchi misrasi “Quyoshsiz elimiz bo‘lib zim-ziyo”, oxirgi: “Der edik: “Yorug‘ kun kelarmi ayo...” misralari fikrimizni isbotlaydi. Bu haqda ishimizning keyingi boblarida to‘xtalamiz.

Ra’no Uzoqovaning “Baxt qo‘shig‘i” kitobida 6 ta to‘rtlik berilgan. To‘rtliklarning barchasi ishq mavzusida.

Chamanzor ichiga berkindi yorim,
Bilurkim ko‘rmasam yo‘qdur qarorim.
Oydinda yugurgan ikki ohudek
Ko‘zlariga posbon ikki qarog‘im.

To‘rtlik a-a-b-a shaklida qofiyalangan bo‘lib, yorim, qarorim, qarog‘im qofiyadosh so‘zlardir. O‘zak tarkibiga ko‘ra murdaf, tuzilishiga ko‘ra mutlaq qofiya. To‘rtlikda ko‘tarinki kayfiyat bo‘lib, bu ijodkorning xarakterini ham ifodalaydi. Tashbeh san’ati qo‘llanilgan ikki ko‘z oydinda yugurgan ikki ohuga o‘xshatilmoqda.

Ra’no Uzoqova ijodida mumtoz adabiyot namunalaridan faqatgina g‘azal janri uchraydi. “Vafo qilmadi”⁴⁴ g‘azali quyidagi satrlar bilan boshlanadi:

Yor menga kulib boqdi, vafo qilmadi,
Netay, bu jon vaslida safo qilmadi.

G‘azal shoira hayotidan ham so‘zlaydi. Uning yori boraman deb va‘da bergan bo‘lsa-da, uning holiga bir nigoh qaratmagani, u “Tiriklay ayrilmam aslo!” deb so‘z bergan bo‘lsa-da, ibo qilmasdan ayrilib ketishi, ya’ni Ra’noning turmush o‘rtog‘i urushga ketib, qaytib kelmagani, unga “Tiriklay ayrilmam aslo!” deb aytgan so‘zining ustidan chiqmagani poetik ifodalalanadi:

Borarman deb berdi-yu va’dani, bilmam,
Bir aylanib holima nigoh qilmadi.
Va‘da edi: “Tiriklay ayrilmam aslo!”
Ayrildi u bevafo, ibo qilmadi.

Ushbu g‘azal to‘qqiz banddan iborat bo‘lib, a-a, b-a, d-a... shaklida qofiyalangan odatiy g‘azal. Qofiyadosh so‘zlar: vafo, safo, imo, ado, havo, davvo, nigoh, ibo, da’vo, navo. O‘zak tarkibiga ko‘ra mujarrad, tuzilishiga ko‘ra muqayyad qofiya. Oltinchi bandda qofiyalanish qoidasi buzilgan. Barcha qofiyadosh so‘zlar “o” raviysi bilan tugagan. Mazkur bandda esa qofiyadosh nigoh so‘zida “h” bilan tugamoqda.

G‘azalda yor avval kulib boqib, so‘ngra vafo qilmagani, boshqalarga lutf-u tamanno qilib, oshiqqa hatto imo ham qilmagani, natijada oshiq bemorga aylangani, bevafo dardiga davvo qilmagani, “Tiriklay ayrilmam aslo” deb va‘da bergan bo‘lsa-da, ul bevafo ayrilib, bundan ibo qilmagani, shul sabab chamanda Ra’no navo qilmagani poetik tasvirlanadi.

44

Shu kitob – B. 122.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILiy TAFakkUR VA INNOVATSION G'oyALAR



Yangi davr o'zbek adabiyotining ajralmas bir qismi bo'lgan Surxon vohasida ham adabiy jarayon shakllandi. Shoirlar ijodida ijtimoiy voqelikni, istiqlolni kuylagan, erk va ozodlikni tarannum etgan, adabiy-estetik tafakkurdagi rivojlanishi asarlarda o'z aksini namoyish etdi.

